



# Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil  
21-noyabr  
№ 47 (988)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## YANA BIR YANGI BINO



Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Bu borada FVV tizimidagi qutqaruvchilarning shart-sharoitlarini yanada yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu boradagi ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Eski turar-joylar o'rnida yangi-yangi massivlar, osmono'par binolar, tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega muassasalar qurilmoqda.

Xususan, Xorazm viloyati Shovot tumani FB bo'limining yangi binosi foydalantirishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari polkovnik Sh.Jo'rayev, viloyat hokimi o'rinbosari, Urganch harbiy prokurori, tuman hokimi va sektor rahbarlari, huquq-tartibot idoralari xodimlari, mahalla faollari hamda faxriylar ishtirok etdi.

donchasi, o'quv-mashg'ulotlar minorasi, o'quv va dam olish, smena boshlig'i, dispatcher, inspektor, bo'lim boshlig'iga alohida xonalar, oshxona, asbob-anjomlar saqlanadigan ombor, majlislar zali xizmat ko'rsatmoqda. Bu o'z o'rnida bo'linmaning jangovar shayligini yanada oshirishga qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Mazkur inshoot, haqiqiy ma'noda qutqaruvchilar uchun bayram, katta tuhfa



Tadbir davomida o'tgan davr mobaynida viloyat FVB xodimlari tomonidan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, aholini bunday vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga oid bilimlarini mustahkamlash, qutqaruv tuzilmalarini zamonaviy avariya-qutqaruv texnika vositalari bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega ekani alohida ta'kidlandi.

Tantanalı tadbirda so'z olganlar bu kabi zamonaviy sharoitlar shaxsiy tarkibning o'z xizmat vazifasiga yanada mas'uliyat bilan yondashishiga, ijtimoiy-iqtisodiy maskanlar, fuqarolar xonadonlarini yong'inlardan himoya qilishga bor kuch g'ayratini safarbar etishib, sadoqat bilan xizmat qilishiga ishonch bildirdilar. Zarur jihozlar bilan ta'minlangan sport may-

bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qayd etilganidek, uy-joylar, bozor, yirik savdo majmualari va aholi ko'p to'planadigan boshqa obyektlarda keng qamrovli profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari kuchaytirilishi zarurdir. Mahallalarda xonadonbay tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada jadallashtirilishi kerak.

Bunday bunyodkorlik ishlari, zamon talablari asosida yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnika bazasining bosqichma-bosqich mustahkamlash borasida qilinayotgan sa'y-harakatlar mamlakatimizda FVV tizimiga qaratilayotgan e'tiborning amaldagi ifodasidir.

Yurtimiz obodligi yo'lida olib borilayotgan ishlar, ayniqsa, hududlarni ko'kalamzorlashtirish, yashil hududlar tashkil etish ona-tabiatiimiz musaffoligini ta'minlash bilan birga, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, salomatligimizni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## UMUMMILLIY LOYIHA DOIRASIDA



Davlatimiz rahbari tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi e'lon qilinishidan so'ng mamlakatimizda loyiha doirasida turli xil daraxt va buta ko'chatlarini ekish ishlari jadal sur'atda davom etmoqda.

Ushbu jarayonga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlar o'zlarining munosib hissasini qo'shib, ushbu loyiha doirasida bir qator tadbirlarni o'tkazib kelmoqda. Jumladan, FVV Markaziy apparati va Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi tomonidan Toshkent viloyatining

Bo'stonliq tumani, Soyliq qishlog'i, "Kichiksoy" mahallasi hududida ajratilgan yer maydonida keng qamrovli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. "Favqulodda vaziyatlar vazirligi bog'i" uchun ajratilgan yer maydoni tekislanib, shudgor qilindi va mineral hamda organik o'g'itlar bilan oziqlantirilib, iqlim sharoitidan kelib chiqib, 3000 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari

layotgan ishlar ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish lozimligi aytiladi.

Ta'kidlanganidek, ko'chat ekishdek xayrli ishlar yurti obod qilish bilan birga, insonlar o'rtasidagi birdamlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi. Dono



xalqimizda "Yaxshidan bog' qoladi" degan purma'no hikmat bor. Oilada farzand tug'lsa, unga atab ko'chat ekiladi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida vazirlik tomonidan mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmisel shamollari va changqum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish borasida samarali ishlar bajarilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar vazirlik rahbariyatining doimiy diqqat-e'tiborida va nazoratida bo'lib kelmoqda.

Darhaqiqat, FVV shaxsiy tarkibi Orol dengizining qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida yashil qoplamlar barpo etish, mamlakatimiz hududlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bo'sh yerlarni o'zlashtirish, yer maydonlarini tomchilatib sug'orish tizimini yaratish, shuningdek, "Obod qishloq" hamda "Obod mahalla" davlat dasturlarini amalga oshirish ishlariga faol ishtirok etmoqda.



ekildi. Shuningdek, ekilgan ko'chatlarni tomchilatib sug'orish ishlari yo'lga qo'yilib, hududda ko'kalamzorlashtirish ishlari ham amalga oshirildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari yanada kuchaytirish, amalga oshiri-

Anvar QOBILOV tayyorladi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yiligi hamda Davlat bayrog'iga 33 yil to'lishi munosabati bilan Jizzax harbiy prokuraturasi tomonidan qator tadbirlar o'tkazildi.

## BAXTIM, FAXRIM...



Xususan, harbiy qism qo'mondonligi hamkorligida "Mening Konstitutsiyam" hamda "Bayrog'im – g'ururim, faxrim" shiori ostida Jizzax shahridagi 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi vakillari va o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Aslahalar ko'rgazmasi, harbiy orkestr, faxriy qorovul jamoalarining chiqishlari qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbirda o'quvchilar o'rtasida "Konstitutsiya bilimdoni" va "Muqaddasdir vatan bayrog'i" shiori ostida rasm chizish bo'yicha tanlovlar o'tkazilib, g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**G'ayrat ATOJONOV,**  
Jizzax harbiy prokuraturasi yordamchisi, adliya mayori.

## HUQUQIY BILIMLAR SINALDI

Urganch harbiy prokuraturasi, Xorazm viloyati Milliy gvardiya va qo'riqlash boshqarmalari hamda jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Viloyat axborot-kutubxona markazida o'tgan tadbir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Davlat bayrog'i mohiyatiga bag'ishlandi.

Jarayonda, shuningdek, Milliy gvardiya va qo'riqlash boshqarmalari harbiy xizmatchilari va xodimlari, Urganch davlat universiteti talabalari ishtirokida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.



Tanlov yakuni bo'yicha g'oliblar va faol ishtirokchilar munosib taqdirlandi.

**Aziz ALIMKULOV,**  
Urganch harbiy prokuraturasi katta yordamchisi, adliya kapitani.

## BAYROG'IMIZ - FAXRIMIZ

18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan "Bayrog'imiz – faxrimiz" nomli ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti "Millat bayrog'i" shiori ostida bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Milliy oldimpiya qo'mitasi departamenti direktori Zafar Imomxo'jayev hamda "yunon-rum" kurashi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi, jahon chempionatining kumush medali sovrindori Aram Vardaryan ishtirok etdi. Bugungi kunda sportchilarimiz yurtimiz

bayrog'ini nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda baland ko'tarayotgani, bundan ko'pmillatli xalqimiz faxr va iftixor tuyayotgani xususida so'z yuritildi.

Shuningdek, ushbu kun milliy birdamlik, hamjihatlik va vatanparvarlik bayrami ekanligi, bayrog'imiz xalqimizning shon-shuhrati, or-nomusi ekanligi ta'kidlandi.

**Nosirjon ERKABOYEV**  
vazirning davlat tilini rivojlantirish va ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahatchisi.

## XAZON BO'LGAN UMR

Sud zalida hozir bo'lganlarning ayrimlari panjara ortida o'tirgan 28 yoshli yigitga achinish bilan termulsa, boshqalarining nigohida nafrat uchqunlari chaqnaydi. Birinchi tarafdagilar uning yosh umri xazon bo'layotganiga achinsa, boshqalar esa shu yoshda bir emas, bir nechta jinoyatga qo'l urgani uchun unga g'azab bilan qarashdi.

Afsuski, endi vaqtni ortga qaytarishning iloji yo'q. S.T.ga jinoyat ishlari bo'yicha Bo'stonliq tuman sudining shu yil 29-fevraldagi hukmiga ko'ra, 2 yil sinov muddati belgilangan. Biroq u yana jinoyat sodir etgan. U shu yil 19-iyun kuni noma'lum shaxsdan ijtimoiy tarmoq belgilangan manzildan orqali o'zi iste'mol qilishi uchun 1.080.000 so'mga giyohvandlik

moddasini sotib olgan. Yarim tunda o'zining avtomashinasida ketayotgan vaqtda IIB xodimlari tomonidan to'xtatilib, xolislar ishtirokida shaxsiy tintuv qilinganda cho'ntagida bo'lgan giyohvandlik vositasi aniqlanib, hujjatlashtirib olingan.

Sud-kimyoviy ekspertizasining xulosasiga ko'ra, S.T. dan hujjatlashtirilib olingan modda tarkibida "Mefedron" moddasi borligi aniqlangan.

Sud sudlanuvchiga jazo tayinlashda aybiga iqrorigi, qilmishidan pushaymonligi hamda boshqa jihatlarini e'tiborga oldi. Sudning hukmi bilan S.T. 3 yil 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

**Bekzod BAXRINOV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudining sudyasi.

## O'RGANISHLAR DAVOM ETDI

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Xorazm viloyatida o'rganishlar olib borildi.

Xususan, shahar va tumanlarda yirik iste'molchilarning energiyani iqtisod qilish imkoniyatlari va energotejamkorlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratildi.

Jarayonda iste'molchilar uchun energiya tejoychi uskunalar ko'rgazmasi tashkil etilib, ularning afzalliklari va imkoniyatlari yuzasidan mutaxassislar ishtirokida batafsil ma'lumotlar berildi.

Ijtimoiy soha obyektlarida jumladan, tibbiyot maskanlari va maktablarda qish mavsumiga tayyorgarlik va energiya samaradorligiga erishish bo'yicha olib borilgan tadbirlar natijasi o'rganildi.

Tashkil qilingan arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkasi ham hududda yashovchi fuqarolarning vaqti va mablag'i tejatishiga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, kam daromadli oilalar holidan xabar olinib, ularning muammolari joyida hal etildi.

Jarayonda nuroniy otaxonlar, faollar va yoshlar ishtirokida "Yashil makon" loyihasi doirasida ko'chatlar ekilib, ekologik madaniyat va atrof muhitni asrash masalalarida yoshlarga tushuntirishlar berildi.

O'rganishlarda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

**G'iyosiddin RAHMONOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi yordamchisi, adliya podpolkovnigi.

## AMALIY JARAYONLAR

Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 32 yilligi hamda davlatimiz bayrog'ining 33 yilligi munosabati bilan harbiy prokuratura organlari tomonidan qator tadbirlar o'tkazildi.

Xususan, Qarshi harbiy prokuraturasi, kuch tuzilmalar, hokimliklar va qator mutasaddi tashkilotlar hamkorligida Qarshi shahri "Mustaqillik" ko'chasi bo'ylab tantanali yurish hamda harbiy qismlar va muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Shu kabi tadbir Farg'ona harbiy prokuraturasi tomonidan "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyida amalga oshirildi.

Shuningdek, Jizzax va Nukus harbiy prokuraturalari tomonidan kuch tuzilmalari va hokimliklar bilan hamkorlikda yoshlar va harbiy xizmatchilar ishtirokida "Konstitutsiyam – baxtim, bayrog'im – faxrim" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Olis hududlardagi maktablarda o'quvchi-qizlar ishtirokida o'tkazilayotgan "Men – vatanparvarman" loyihasi doirasidagi ko'rik-tanlovlar ham asosiy qonunimiz va bayrog'imiz mazmun-mohiyati borasidagi tadbirlar bilan uyg'unlashib ketdi.



**Gulchehraxon TURSUNOVA,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi katta yordamchisi, adliya podpolkovnigi.

## HALOKATGA YETAKLOVCHI YO'L

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB shaxsiy tarkibining xizmat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.



Aynan shu vazifalarning amalga oshirilishida o'z oldimizga korrupsiyaviy xavf-harakatlarga ko'maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun aniq vazifalarni belgilab olganmiz. Tizimda joriy yil "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish" kuni munosabati bilan joriy yil 9-noyabrdan 9-dekabr kuniga qadar "Aksikorrupsiya oyligi" e'lon qilinib, bu bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi. Ushbu chora-tadbirlarga e'tibor

qaratadigan bo'lsak, birinchi navbatda, tizim xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan to'liq tanishtirib chiqish hamda uchrashuvlar va davra suhbatlari muntazam ravishda xodimlarning vatanparvarlik, vatanga satoqat, tanlagan kasbiga hurmat tuyg'ularini yanada oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat.

Chunki har bir xodim amaldagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini bilmas ekan, korrupsiyaga qarshi kurashishni ham bilmasligi aniq. Shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligi yuzasidan har bir xodim bilan alohida suhbat olib borish, bo'limga tashrif buyurayotgan fuqarolar bilan etika, odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda muomalada bo'lish, har bir tumanda huquqni muhofaza qilish bo'limi va diniy idoralar xodimlari bilan birga seminar-treninglar tashkil etish kabi vazifalar belgilab olindi.

**D.DAULETBAYEV,**  
Qorao'zak tumani FV bo'lim boshlig'i, mayor.



## QOIDALARGA RIOYA ETAYLIK!

Surxondaryo viloyati FVB mas'ul xodimlari hamda Sariosiyo tumani huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishtirokida Sariosiyo, Uzun tumanlari FV bo'limlari xodimlari o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" doirasida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirda idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish



orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va sharoitlarni tag-tomiri bilan

yo'qotish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajadagi muhim vazifalari ekanligi to'g'risida tushunchalar berildi.

Tadbir yakunida korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari bo'yicha fikr almashilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

**J.JURAYEV,**  
Surxondaryo viloyati FVB  
axborot xizmati boshlig'i,  
mayor.

FVV O'M va TOYXTTEB NKMK AJ hamda Navoiyuran DK OYXTTEB ShKB OYXTTE bo'limida 1999-yildan hozirga qadar smena boshlig'i, qism boshlig'i o'rinbosari, qism boshlig'i hamda xizmat va jangovar tayyorgarlik bo'yicha bo'lim boshlig'i o'rinbosari lavozimlarida ishlab kelgan podpolkovnik Tohir Ro'ziyev 52 yoshida nafaqaga kuzatildi.

## NAFAQAGA KUZATILDI

Tadbirda faxriylar bo'limi boshlig'i, o'rinbosarlari hamda shaxsiy tarkib ishtirok etib, kasbdoshimiz podpolkovnik Tohir Ro'ziyev haqida iliq fikrlar bildirildi. Xizmat faoliyati bilan bog'liq ajoyib xotiralar yodga olindi. Mashaqqatli mehnati, olib borgan xizmatlari uchun shogirdlari tomonidan unga minnatdorchilik bildirildi. FVV tizimida ish faoliyatini olib borayotgan

yosh kadrlarga ustozning umr yo'li va faoliyati ibrat bo'lishini hamda mana shunday fidoyi xodimlar yanada ko'payishini tilab qolamiz.

**E.XOMITOV,**  
ShKB OYXTTEB inspektori,  
leytenant.  
**F.ULUGOV,**  
kichik inspektor, oddiy  
askar.

## O'QUV SEMINAR

Sirdaryo viloyati hokimligi, viloyat sektor rahbarlari, viloyat FVB tomonidan kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish uchun mas'ul idoralar xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida o'quv seminari o'tkazildi.

Unda Respublika transport prokurori adliya katta maslahatchisi Ikrom Narimov, viloyat hokimi Akmaljon Mahmudaliyev tomonidan o'tgan yillarda qish

mavsumida havo haroratining keskin soviq ketishi va yuzaga kelgan anomal sovuq kommunal xizmat ko'rsatish tizimi xodimlarini jiddiy sinovdan o'tkazganligi, viloyatda mavsumga tayyorgarlik ko'rish davomida olis hududlarga, qishloq va ovullarga ko'mir va suyultirilgan gazni yetkazib berishga alohida ahamiyat qaratish lozimligi ta'kidlandi.

Shu bilan birgalikda, kommunal soha obyektlarida avariylarni tezkorlik bilan bartaraf

etish maqsadidagi avariya-tiklash xizmatlarining zaxiralari hamda sodir bo'lgan noxush holatlarni bartaraf etishda ishtirok etadigan FVDT xizmatlarining kuch va vositalarining shayligi tekshirib ko'rildi.

**Xayrullo RAXMETOV,**  
Sirdaryo viloyati FVB boshlig'i  
o'rinbosari, podpolkovnik.  
**G'iyos BOBOYEV,**  
Sirdaryo boshqarma HFXO'M  
boshlig'i, podpolkovnik.

## MA'RIFAT DARSII!

Andijon viloyati FVB boshlig'i polkovnik B.Ashurov tomonidan "Milliy g'oyani taraqqiyotdagi o'rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish omillari" mavzusida navbatdagi ma'rifat soati o'tkazildi.



Unda boshqarma harbiy xizmatchilari va xizmatchilari bevosita qatnashgan bo'lsalar, mahalliy va obyektlardagi bo'linmalar shaxsiy tarkibi "ZOOM" platformasi orqali bevosita joylardan ishtirok etdilar.

Ma'rifat soatida boshqarma boshlig'i tomonidan shaxsiy tarkibga yurtimiz hamda jahonda ro'y berayotgan yangiliklar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar ham berilib, ma'ruza-ning amaliy qismi sifatida Yangi Andijon massivida barpo etilgan "Vatanparvarlik bog'i"ga tashrif uyushtirildi.

**Hayotbek RAHIMOV,**  
Andijon viloyati FVB axborot  
xizmati boshlig'i, kapitan.

## KO'RGAZMALI MASHQ

Toshkent viloyati FVB tomonidan ma'sul tashkilotlar bilan hamkorlikda "Odamlarning ovqatdan ommaviy zaharlanishi hamda botulizm kasalligining oldini olishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Ikki bosqichda tashkil etilgan mashq davomida kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar jumladan, oziq-ovqat mahsulotlaridan ommaviy zaharlanish mavzularida mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga ma'ruzalar o'qib

eshitirildi. Ovqatdan zaharlanish, oshqazon-ichak faoliyatining buzilishi holati aniqlanib, tashkilot tibbiyot xodimi tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatilishi hamda zudlik bilan tez yordam chaqirilib kasallangan bolalarni shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasiga olib



borilganda tibbiy yordam berish ishlari amalda ko'rsatib o'tildi.

**O.RAHMONOV,**  
Toshkent viloyati FVB  
bo'lim, bosh inspektori,  
leytenant.

## OGOHLIK

Kasb-hunar maktabida "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida ShKB OYXTTE bo'limi inspektorlari tomonidan o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida tadbir tashkil etildi. Tadbirda soha vakillari tomonidan favqulodda vaziyatlar ro'y berganda hamda zilzila hodisasi haqida ma'lumot va videoroliklar qo'yilib, ushbu

ofat yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish qoidalari yana bir bor eslatib o'tildi.

**S.BAHODIROV,**  
ShKB OYXTTE bo'limi  
katta inspektori, kapitan.  
**I.QILICHEV,**  
bo'lim kichik inspektori,  
oddiy askar.

## NOANANAVIY YONDASHUV

Toshkent shahrining Yangi-hayot tumanida FVV Akademiyasi favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan noan'anaviy yondashgan holda profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



Akademiya professor-o'qituvchilari tumanda joylashgan obektning funksiyasi va ularda ishlovchi personallarning yosh toifasiga qarab ular

ga mos bo'lgan targ'ibot materiallari ishlab chiqib tuman FV bo'limi harbiy xizmatchilari bilan birgalikda Sputnik-16-uydagi "Sodiqjon-Islobek" MChJga qarshli qurilish mollari yirik savdo do'konida, 120-uydagi "Mega-oil biznes" MChJga qarshli avtomobillarga gaz to'ldirish shoxobchasida, 119-uydagi "Petrol" MChJga qarshli "ChERY" avtomobillar savdo do'konida, 122-uydagi "Petrol" MChJga qarshli avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchasida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Mazkur tadbirlar yakunlarida personallardan so'rovnoma o'tkazilganda ulardan odatdagi profilaktik tadbirlarga nisbatan natijador ma'lumotlar olindi.

**S.JUMAYEV,**  
FVV Akademiyasi  
kafedra boshlig'i, podpolkovnik

Chinoz tumani hududida kuz-qish mavsumi davomida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida o'zaro hamkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida 4 ta sektorda ishchi guruhlar tuzildi.

## MA'SULIYAT BILAN...

Ishchi guruhlar tarkibiga gaz, elektr, suv, yong'inlarning oldini olish jamiyati hamda boshqa mas'ul tashkilot xodimlaridan iborat avariya-tiklov jamoalari kiritilib, ularning kunu-tun navbatchiligi tashkil qilindi.

Bundan tashqari, tuman hududida har bir mahalla, ijtimoiy soha obyektlarida, odamlar ko'p yig'iladigan bozor va savdo komplekslarida hamda ta'lim va tibbiyot muassasalarida keng jamoatchilikni jalb qilgan holda favqulodda vaziyat, yong'in, gaz-havo aralashmasining chaqnashi hamda fuqarolarning tabiiy va is gazidan zaharlanishi kabi noxush holatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik targ'ibot tadbirlari olib borilayapti. Profilaktik



ishlar davomida fuqarolarga is gazi va yong'inlarning oldini olishga doir eslatma materiallari tarqatilmoqda.

**T.ERALIYEV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i,  
mayor.  
**A.QO'SHAQOV,**  
bo'lim boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.



## ZARUR ESLATMALAR



**Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan Qarshi davlat universitetida "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida profilaktik tadbir o'tkazildi.**

Unda boshqarma rahbariyati tomonidan talabalarga zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin

harakatlanishlar bo'yicha tushunchalar berildi.

Bundan tashqari, talabalarga yashash xonadonlarida mavjud gaz isitish moslamalari va elektr qurilmalaridan foydalanishda ehtiyot choralarini ko'rishlari ta'kidlandi. Ayniqsa, is gazidan zaharlanishdan saqlanish bo'yicha tavsiyalar berildi. Talabalar o'zlarining qiziqtirgan savollarga javob oldilar. "Yerning halokatli kuchi" mavzusidagi videorolik namoyish etilib, sohaga oid eslatmalar tarqatildi.

**M.OSTONOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, podpolkovnik.

## HAFTALIK DOIRASIDA

Dehqonobod tumanidagi ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar, ta'lim va davolanish muassasalari, shuningdek, mahallalarda "Zilzilagacha, zilzila vaqtida, zilziladan so'ng o'quvchi va o'qituvchilar hamda ishchi-xizmatchilarning harakatlari" mavzusida targ'ibot-tashviqot, davra suhbat, uchrashuvlar hamda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib kelinyapti.

"Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida amalga oshirilayotgan ushbu tadbirlar davomida zilzila vaqtida to'g'ri

harakatlanish, jabrlanganlarni qutqarish, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etish, elektr va gaz tarmoqlarida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish, sanitar dizinfeksiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va tushuntirishlar berilmoqda.

**O'tkirbek YULDASHEV,**  
Dehqonobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, mayor.

## TAJIRIBA ALMASHISH

**FVV Akademiyasining dotsenti, podpolkovnik Malohat Badalbayeva O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga qisqa mudatli stajirovkaga yuborildi.**

M.Badalbayeva ilmiy-pedagogik stajirovka o'tash mobaynida Ingliz tili fakulteti "Ingliz tili amaliy fanlar 3" kafedrasida o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimini, kafedrada ilmiy ishlar bo'yicha mas'ul o'qituvchining vazifalarini, "Ustoz-shogird" tizimini, yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni iqtidorli talabalar bilan ishlashni, tyutorlar va ularning vazifalarini, professor-o'qituvchilar to'g'risida umumiy ma'lumotlarni, ochiq darslarni o'tkazish, kredit-modul tizimi, o'zaro darslarga kirish, o'tilgan darslarni qayd etish daftarlarini, o'quv dasturlari va o'quv yuklamalari, darslik qo'llanmalari, kutubxonalar va boshqa ta'limi



sohalarida erishilgan yutuqlarini o'rganmoqda.

Shuningdek, kafedrada o'quv jarayonini tashkil qilish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar: o'qitiladigan fanlar va ularga ajratilgan soatlar, mavzular, adabiyotlar ro'yxati, fanlar bo'yicha rejalar tuzish, professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejaları, magistrant va doktorantlar haqida ma'lumotlar bilan tanishmoqda.

**Rushana ROZABOYEVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

## SEYSMIK XAVFDAN HIMOYA



**Farg'ona viloyati hududida aholi ishtirokida zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'quv-seminarlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.**

Ushbu tadbirlar davomida so'nggi yillarda aholi va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish bo'yicha aniq

maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani aytiladi. Seysmologiya va seysmik chidamli qurilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini jahon talablari darajasida o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratilayotgani qayd etildi. Yer qobig'ining kuchlangan-deformatsiyalangan holatini kuzatuvchi, seysmik xavfni baholashda va zilzilalar darakchilarini qayd qilishda foydalaniladigan stansiyalar tarmog'ining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanayotgani ta'kidlandi.

**Talabjon XOLMATOV,**  
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

Namangan viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi hamda Namangan shahar FV bo'limi xodimlari, Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi hududiy boshqarmasi hamkorligida mashg'ulotlar o'tkazildi.

## DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOT

Yangi Namangan tumani hududidagi Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti professor-o'qituvchi va talaba-yoshlari ishtirokida tashkil etilgan ushbu tadbir zilziladan oldin, zilzila sodir bo'lganda va zilziladan so'ng to'g'ri harakatlanish, shuningdek, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanishlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishni o'rgatishga qaratildi.

Mashg'ulotda yong'in-qutqaruv asbob-anjomlari yoshlarga yaqindan tanishtirilib, talabalar turar-joylari, ijarada yashovchi o'g'il-qishlarni kuzqish mavsumida xonalarni isitish maqsadida foydalanilayotgan gaz, elektr jihozlardan belgilangan qoida-



talablar asosida foydalanishlari yuzasidan kerakli yo'riqnomalar berildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.  
**G'ulomjon ISMOILOV,**  
boshqarma HFXO'M boshlig'i, podpolkovnik.

## YO'RIQNOMALAR BERILDI

Davlatobod tumani hududidagi qurilish-montaj ishlari olib borilayotgan bir qator ijtimoiy soha obyektlari hamda ko'p qavatli aholi yashash uylarini yong'in xavfsizligi qoida-talablariga amal qilinishi yuzasidan tuman FV bo'limi davlat yong'in nazorati inspektorlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazib kelinmoqda.

O'tgan 10 oy yakunida tumandagi 25 ta qurilish tashkilotlarida vakolatli organni xabardor etish tartibida tekshiruvlar o'tkazildi. Tekshiruv davomida bir qator qoida buzish holatlari aniqlanib, mas'ul mutasaddi rahbarlarga O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksning 211-moddasi 1-qismiga asosan o'rnatilgan tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi, tekshiruvdagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 649 ta yozma tavsiyalar yozib topshirildi. Bundan tashqari, qurilish obyektlarida 32 marotaba uchrashuv o'tkazildi, unda 1498 nafar ishchi-xodimlar quruvchilarga texnika va yong'in xavfsizligi qoida-talablariga amal qilgan holda ishlash yuzasidan suhbat va yo'riqnomalar tashkil qilindi.

**Akmal MUSAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi DYON inspektori, katta serjant.

## QIRG'OQ MUSTAHKAM BO'LSA...



Uchqo'rg'on tumani "Eshon to'pi" mahallasidan oqib o'tuvchi Norin dar-yosining oqim bo'ylab chap qirg'og'ida o'zan tozalash, qirg'oq mustahkamlash va damba ko'tarish ishlarini ko'zdan

kechirib, daryo o'zanlarini tabiiy oqishi hamda qirg'oq dambalarini mustahkamlash bo'yicha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berilgandi.

Hozirda amalga oshirilayotgan ishlarni jamlab borish maqsadida viloyat FVB tezkor shtabi hamda viloyat FVDT xizmatlari kuch va vositalari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari-ga maxsus texnikalar jalb etildi.

**Qahramon SATTOROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## QUTQARUVCHI BO'LAMAN!

**Qo'qon shahridagi 33-maktabda "Men ham qutqaruvchi bo'laman!" tanlov o'tkazildi.**

Tadbirda bugungi kun yoshlarini qanday kuch va bilimga ega ekanligi yana bir bor namoyon bo'ldi. Qizg'in kechgan bahslarga boy bo'lgan bellashuvlarda yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlarga g'oliblik nasib etdi.

Quvonarlisi, tadbirlarda ishtirok etgan yoshlar o'rtasida qutqaruvchilik

kasbiga qiziqqan yoshlar juda ko'pchilikni tashkil etdi. Sohaga qiziqqan yoshlarga maxsus texnikalar namoyishi tashkil etildi. Ularga jangovar vaziyatlarda insonlarni arqonlar yordamida qanday qutqarib olish harakatlari malakali qutqaruvchilar tomonidan aniq misollarda ko'rsatib berildi.

**Talabjon XOLMATOV,**  
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.



## UCHRASHUV

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi siki o'qituvchisi podpolkovnik J.Saidov tomonidan Samarqand shahridagi 49-umumta'lim maktabida o'quvchi-yoshlar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuv davomida "Favqulodda vaziyatlarda insonlarga yordam berish muqaddas burch" mavzusida o'quv seminari tashkil etilib, FVV tizimi faoliyatini targ'ib qilish, maktab o'qituvchi va o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda hamda yong'in sodir bo'lgan vaqtlarda harakatlanishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, ularda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida hozirgi kunda tizim xodimlari tomonidan olib borilayotgan ijobiy ishlar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, kelgusida vazirlik tizimida o'qishga kirish va shu sohada ishlashga qiziqishi bo'lgan o'quvchi-yoshlar bilan alohida tartibda yig'ilish o'tkazilib, sohada olib borilayotgan islohotlar, qutqaruvchilarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, qurilayotgan yangi, zamonaviy bino-inshootlar hamda moddiy-texnik bazaning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganligi aytilib o'tildi.

V.RAHMONOV,

FVV BT va MOM siki katta o'qituvchisi, mayor.

## PROFILAKTIK TADBIR



Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filialida FVV markaziy apparati hamda viloyat FVB mas'ullari boshchiligida "Kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish" hamda "Aholini zilzilaga tayyorlash" mavzularida o'quv-seminari o'tkazildi. Unda talabalar, o'qituvchi-professorlar va boshqa mas'ul xodimlar ishtirok etdilar.

Seminar davomida favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning aksariyati kishilarning loqaydligi, beparvoligi va yong'in xavfsizligi qonun-qoidalariga rioya qilmasliklari natijasida yuzaga kelishi mumkinligi, favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligi, isitish mavsumi davomida nozoz, qo'lbola pechlardan foydalanmaslik yuzasidan tushunchalar berildi, mavzularga doir eslatmalar tarqatildi.

Ma'ruf RAHMONQULOV,

Kattaqo'rg'on shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## YONG'INGA QARSHI

Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB tomonidan "Buxoro xalqaro aeroporti" MCHJ ishchi-xizmatchilari bilan yurtimizda o'tkaziladigan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar berildi.

Halim SAIDOV,

Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB inspektori, kapitan.

"Qamchiq" davonida mavjud 15 ta mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlarini qishki mavsumga shayligini ta'minlash maqsadida ishchi guruh tomonidan o'rganishlar olib borildi.

## MAVSUMGA SHAY

Ushbu davrda ayrim kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish ishlari olib borildi. Bir so'z bilan aytganda mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlari jangovar shay holatga keltirildi.

Shu o'rinda aytish kerakki, mavsumda A-373 avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni qismidan o'tuvchi haydovchilar va yo'lovchilarning betalafot o'tishlarini ta'minlashda mazkur guruhlar muhim o'rin tutadi.

Sh.NE'MATJONOV,

"Qamchiq" MQYOQB avariya-qutqaruv otryadi "Beshqo'l" AQG komandiri, kichik serjant.

## GENDER TENGLIK FAOLI

Buxoro viloyatida xotin-qizlarning jamiyatdagi ro'lini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha "Gender tenglik faoli" milliy tanlovi bo'lib o'tdi.



Tanlovdan maqsad, har bir tashkilotda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish, tashkilotlar faoliyatiga gender yondashuvlarni joriy etish, gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e'tiborini keng jalb etish, turli tuzilmalar faoliyatida gender tenglikni singdirishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga asosan o'tkaziladigan bu yilgi "Gender tenglik faoli" milliy tanlovida 30 dan ziyod talabgorlarning ishlari 9 ta nominatsiya bo'yicha tanlov komissiyalari tomonidan o'rganilib, g'oliblar aniqlandi. Tadbirda Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB katta inspektori podpolkovnik Nargiza Aynazarova ham faol ishtirok etib, viloyat hokimi B.Zaripov tomonidan tashakurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Biz ham shu o'rinda hamkasbimizga respublika bosqichida ham faol ishtirok etishida omad tilab qolamiz.

Rustam BOBOYEV,

Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB bosh inspektori, kapitan.

## ZILZILA VAQTIDA HARAKATLAR

"Qamchiq" maxsus qidiruv yong'in-qutqaruv boshqarmasi qutqaruvchilari tomonidan dovon hududidagi "Qamchiqavtoyol" IYFK DMga qarashli yo'l bo'limlari, "Qamchiq" va "Rezak" tunnelari ishchi xodimlari bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda.

Ushbu mashg'ulotlar davomida yer silkinishi paytida qanday harakatlarni amalga oshirish yuzasidan to'liq ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, uyda, mashinada yoki ko'chada yuz bergan zilzila vaqtida qilinishi lozim bo'lgan harakatlar bo'yicha tushunchalar, tavsiyalar, yo'riqnomalar berildi.

B.ANORQULOV,

"Qamchiq" MQYOQB otryad komandiri, mayor.

## "OCHIQ ESHIKLAR" KUNI



Shimoliy kon boshqarmasi OYXTTE bo'limida Uchquduq tumanidagi barcha umumta'lim maktab o'quvchilari bilan birgalikda "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi. Zilzila vaqtida va zilziladan keyin harakatlanish bo'yicha profilaktik tadbirlar hamda o'quv mashqlari o'tkazilib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari oshirildi.

Shu bilan birga yong'in o'chirish avtomobillari va unda mavjud yong'in o'chirish qurol-aslahalari bilan tanishtirilib, tushunchalar berildi. Tadbir so'ngida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga soha xodimlari tomonidan javoblar oldilar.

Husan XOLIQOV,

Shimoliy kon boshqarmasi OYXTTE bo'lim boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

Elyor DILMURODOV,

bo'lim inspektori, oddiy askar.

## XAVFSIZLIK HOLATI BO'YICHA

Namangan viloyati Kosonsoy tumani FV bo'limi ma'sul xodimlari tomonidan joriy yilning 10 oyi davomida tuman hududida qurilib, yangidan barpo etilayotgan 14 ta qurilish maskanlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan xabardor etish tartibida, yong'in xavfsizligi holati bo'yicha tekshiruv o'tkazildi.

Tekshiruvda aniqlangan qoida buzish holatlari yuzasidan mutasaddi rahbarlarga zarur talab va topshiriqlar berildi. Bu boradagi tadbirlar soha mas'ullari tomonidan uzviy davom ettirilmoqda.

Zuxriddin ABDURAHMONOV,

Kosonsoy tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

## BETALOFOT O'TKAZAYLIK!

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK tasarrufidagi barcha ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari, sexlarida hamda yangi qurilayotgan obyektlarda uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Ko'rgazmali qurollardan, ya'ni maxsus videoroliklar, eslatma va platlardan foydalanilayapti.

Bundan tashqari, korxonalarining ishchi-xizmatchilari bilan yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari bo'yicha yo'riqnomalar hamda yong'in sodir bo'lganda ularning harakatlanish tartib-qoidalariga amal qilishlari yuzasidan tushuntirish ishlari muntazam olib borilmokda.

Shuningdek, qo'riqlanayotgan obyektlarni yong'in xavfsizligi holati o'rganib chiqilib, unda asosiy e'tibor birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlanganligi, yong'indan avtomatik ravishda xabar beruvchi moslamalar bilan jihozlanganligi va ularning sozligi, evakuatsiya chiqish yo'llarining holatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'rufjon HAYITOV,

"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi xodimi, katta serjant.



**Mutasaddi idora va xizmatlarning mas'uliyatini yanada oshirish, sohalar kesimidagi kamchiliklarni vaqtida bartaraf qilish, aholining murojaatlari va ulardagi muammolarni joyida hal etish, yong'in-qutqaruv xizmatlari bilan bevosita hamkorlik ishlarini tashkillashtirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.**

## MAVSUMGA SHAYLIK

Boisi, kuz-qish mavsumida havo haroratining pasayishi elektr, gaz va isitish moslamalariga nisbatan ehtiyojni oshiradi. Bu esa o'z navbatida, barchamizdan yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni talab etadi. Shuning uchun ham joylarda mavsumga tayyorgarlik ko'rish, energetika tarmoqlarining barqaror

ishlashini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan yig'ilishlar o'tkazilmoqda.

**D.HUSANOV,**  
Chilonzor tumani FB bo'limi,  
P va NB kichik inspektori,  
kichik serjant.

## SERMAZMUN SAYOHAT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan tinglovchilar buyuk ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan Sharq gavhari hisoblanish Registon maydonidagi Tillakori, Sherdor va Ulug'bek maqbaralarini ziyorat qilishdi.

Sayohat chog'ida tinglovchilar buyuk ajdodlarimiz nechog'lik aql-zakovat egalari bo'lishganiga ular yaratgan bino va inshootlarga qarab,



yana bir bor ishonch hosil qilishdi.

**Javlonbek ALQAROV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi ofitseri, leytenant.

## BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!

Ayni paytda soha xodimlari tomonidan joylarda yong'in hodisalarining oldini olishga oid tadbirlar kuchaytirilgan tartibda olib borilmoqda. Albatta, barchamiz ushbu amaliy sa'y-harakatlarda yanada faol bo'lishimiz, bu boradagi tadbirlarga munosib hissa qo'shishimiz lozim.

Negaki, arzimagan e'tiborsizlik yoki loqaydlik, bolalarga

beparvo bo'lish, ularni nazoratsiz qoldirish yoki mutaxassislarining tavsiyalariga amal qilmaslik talafotli oqibatlarga olib kelishi, eng achinarlisi, o'zimiz, yaqinlarimiz hayotiga xavf solishini aslo unutmasligimiz kerak.

**M.ZIKIROV,**  
O'z MTRK OYXTTEB kichik inspektori, kichik serjant.

## AJDODLARGA EHTIROM



Anjumanlar saroyi YXTTEB inspektorlari tomonidan otaliqqa olingan yoshlarni ma'naviy salohiyatini oshirish

maqsadida Toshkent shahar Yunusobod tumani Shahidlar xiyobondonidagi "Qatag'on qurbonlari" muzeyiga sayohat tashkillashtirildi.

Sayohat davomida muzeydagi tarixiy eksponatlar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

**D.XADRALIYEVA,**  
Anjumanlar saroyi YXTTEB inspektori, kapitan.

## HARAKATLAR O'RGATILDI

Bektemir tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tumandagi 580-maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari va tarbiyalanuvchilari bilan 15-noyabrdan 15-dekabrgacha yurtimizda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasidagi profilaktik tadbirlar olib borildi.

Tadbir davomida bolalarga yong'in xavfsizligini ta'minlash

bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot tarqatma materiallar, plakatlari va boshqa turli o'yinlar orqali yong'in paytida qanday harakatlar qilish o'rgatildi.

**Doniyor KENJABOEV,**  
Bektemir tumani FVB P va NB katta inspektori, mayor.

## TALABALAR YOTOQXONASIDA

**Namangan muhandislik qurilish instituti 7-o'quv binosi turar-joyidagi talabalar bilan institut ma'muriyati o'rtasida uchrashuv o'tkazildi.**

Unda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati ko'zdan kechirilib, yong'in va texnika xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash kabi masalalarda muloqot olib borildi.

Uchrashuvda talabalar turar-joyi, shuningdek, ular yashayotgan ijara xonadonlarining holati va yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda talaba-yoshlar orasida is gazidan zaharlanish va yong'in xavfsizligi qoidalarini, uning oldini olishga doir o'tkazilayotgan tadbirlarning



maqsad va vazifalari haqida tushuntirishlar berildi.

**Sardor BAHRONOV,**  
Uychi tumani FV bo'limi katta inspektori,  
katta leytenant.

## KO'NIKMALAR OSHIRILDI

**Kosonsoy tumani "Obod" MFYda tuman FV bo'limi shaxsiy tarkibi hamda hamkorlikdagi tashkilot xodimlari ishtirokida "Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kuni" o'tkazildi.**

Unda aholi yashash xonadonlari, ijtimoiy soha va qurilish obyektlarida keng qamrovli targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi. Tadbirda asosiy e'tibor fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilib, aholi yashash xonadonlarida yong'inlarning oldini olish, is gazi va gaz-ha-

vo aralashmasining chaqnashi kabi ko'ngilsiz holatlarning oldini olish, yashash uyida va ish joylarida nosoz va nostandart gaz va elektr qurilmalaridan foydalanmaslik, bu qurilmalarni nazoratsiz qoldirmaslik va nazoratini yosh bolalarga bermaslik hamda "Botulizm", "Qrim-Kongo" gemorragik isitma, "Quturish" kasalliklarining oldini olishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi.

**Foziljon USMONOV,**  
Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant.

## SAHRODAGI SHERYURAKLAR!

**Buxoro viloyati Qorako'l tumani hududidagi "LUOK" MChJga qarashli "Qandim" gazni qayta ishlash zavodi yerosti boyliklaridan gazni qayta ishlab, mamlakatimiz istiqboli uchun hissa qo'shib kelmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.**

Zavod sahroda joylashganligiga qaramasdan yiliga 8,1 mlrd. m<sup>3</sup> tovar gazni, 134,36 ming tonna barqaror kondensat va 212,9 ming tonna birlamchi xomashyo ishlab chiqaruvchi gazni qayta ishlaydi. Uzluksiz texnologik jarayon olib borilayotgan bu zavodni favqulodda faziyatlar hamda yong'in xavfsizligi bo'yicha qo'riqlash, "LUOK" MChJ Obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi hamda Buxoro viloyatidagi obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish



bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan amalga oshirilmoqda.

**M.SHUKRULLAYEV,**  
"LUOK" MChJ Buxoro viloyatidagi OYXTTE bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.  
**SH.MUSTAQIMOV,**  
bo'lim bo'linma katta inspektori, leytenant.

## KAMCHILIKLAR BARTARAF ETILDI

**Kuz-qish mavsumida aholi turmush sharoitini yaxshilash, kommunal tizmdagi mavjud muammolarni aniqlash va hal etish shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida Dang'ara tumani FV bo'limi xodimlari va tumandagi mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda nazorat va profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.**

O'rganishlar davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha berilgan tavsiya va topshiriqlar bilan birgalikda ushbu obyektlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ham fuqarolarimiz va ishchi-xizmatchilarga soha yo'nalishlari bo'yicha tushuntirishlar berildi.

**M.VALIJONOV,**  
Dang'ara tumani FV bo'limi P va NB kichik inspektori, oddiy askar.

## TARG'IBOT

**Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi mahallalarda fuqarolar bilan yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish hamda xavfsiz, tejamkor gaz va energetika moslamalaridan foydalanish, mavsumni betalafot o'tkazish bo'yicha seminarlar tashkil etilmoqda.**

Shu bilan bir qatorda, qurilish sohasidagi ishlar ham yaqqol ko'zga tashlanib bormoqda.

Yangi O'zbekiston massivi doirasida qurilish ishlari davom etmoqda. Quruvchi tashkilotlar binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tekshiruvlar va unga rioya qilish bo'yicha suhbatlar o'tkazishmoqda.

**Abdulla ISMOILOV,**  
Hazorasp tumani FV bo'limi bo'linma katta inspektori, katta leytenant.



# KORRUPSIYA – KELAJAK ZAVOLI

**Bolaligimizdan buyuk maqsadlarga erishishni, bilimli va muvafqiyatli insonlar bo'lishni orzu qilamiz. Ko'p odamlar o'z maqsadlariga erishish yo'lida turli tahdidlar va to'siqlarga duch kelishadi va ko'plab yoshlar o'z maqsadlariga osonlik bilan erishish uchun noto'g'ri yo'l tutishadi. Bunday tahdidlardan biri korrupsiya.**

Har qanday jinoyatchilik, shu jumladan, korrupsiya ham jamiyat rivojiga to'sqinlik qiladi. Chunki ular fuqarolarda davlatga, qonunlarga ishonchsizlik, ularni hurmat qilmaslik ruhini paydo qiladi. Korrupsiya nihoyatda keng qamrovli hodisa bo'lib, uni umumijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy va huquqiy ma'noda tushunish mumkin.

Korrupsiya tushunchasi va shakllari xalqaro darajada rasman BMTning 1995-yildagi rezolyutsiyasida o'z

jarayonlari tufayli mansabdorlarning o'z mansab vakolatini suiiste'mol qilishi yanada kuchaygan.

Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi ildiziga putur yetkazadi, inson huquqlari, qadr-qimmat, hayotda tutgan o'rni va kelajagining buzilishiga olib keladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib gullashi uchun qulay muhit hosil qiladi. Yurtimizda ham ushbu illatga chek qo'yish va uni ildizi bilan yo'qotish har bir fuqaroning zimmasiga yuklatilgan burch bo'lib, aqlini tanish yoshiga yetgan har bir kelajak avlodga unga qarshi immunitet hosil qilish va korrupsiya jamiyat taraqqiyoti kushandasi ekanligini uqtirib borish lozim. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash o'zining qat'iyligi va davomiyligi bilan ajralib turadi. Singapur mustaqillikka erishgan 1965-yilda korrupsiya avjiga chiqqan edi. Uni kamaytirish uchun bir qator vertikal choralar ko'rildi. Xususan, amaldorlar xatti-harakatlarini cheklab qo'yish, byurokratik protseduralarni soddalashtirish kabi choralar shular jumlasidandir. Asosiysi, qonunchilikda bu illatga qarshi og'ir jazolar tayinlandi. Hozirgi kunda Singapur korrupsiyadan xoli mamlakatlar orasida yetakchi o'rinda turibdi.

"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro hamda boshqa xalqaro hujjatlarda bolalarning sifatli ta'lim olishda teng huquqlarga ega ekanligi belgilab berilgan bo'lsa-da, ushbu huquq muttasil buzilib kelinmoqda. Bularning barchasi, xalqaro maydonda ta'lim sohasida korrupsiyaning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatib bermoqda. "Transparency International" xalqaro tashkilotining hisobotiga ko'ra, bugungi kunda jahonda ta'limning barcha bosqichlarida korrupsiyaga to'qnash kelishimiz mumkin. Korrupsiyaviy jinoyatlarning bevosita maktab o'quvchilari ko'z o'ngida yoki ularning ishtirokida sodir etilishi ularning ongida korrupsiyaning normal holat sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Dunyoda korrupsiyaning oldini olish, xususan, ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Buni so'nggi yillarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi jamiyatimizning har bir a'zosiga tegishli bo'lib, halol va vijdonan mehnat qilish, korrupsiya oqibatlarini bilan kurashishdan ham ko'ra, uning oldini olish muhim masaladir. Ayniqsa, xalq ta'limi sohasidagi korrupsiyaning oldini olmaslik mamlakatning ertangi taqdirini tamomila barbod bo'lishiga olib keladi. Sifatsiz ta'lim berilishi oqibatida bilimsiz kadrlar shakllanib, eng yomoni ta'lim sohasi esa rivojlanmay korrupsiyaning botqog'iga botishiga sabab bo'ladi.

Yoshlar jamiyatdagi o'zgarishlarning dvigatelidir. Ularning ishtiyoqi, g'ayrati va adolatga bo'lgan sadoqati, ularni korrupsiyaga qarshi kurashda g'oyat qudratli kuchga aylantiradi. Ular korrupsiyani o'z kelajagi va jamiyati kelajagiga tahdid deb biladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga tayyor bo'lgan avlodni shakllantirishda ta'lim muhim o'rin tutadi. Korrupsiya oqibatlaridan xabardor bo'lgan yoshlar ongli qarorlar qabul qila oladi, kurashda faol ishtirok etadi. Korrupsiyaga qarshi qadriyatlarini singdirish bo'yicha dasturlar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylinishi kerak.

Ommaviy tadbirlar korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam berishi bilan birga yoshlarning korrupsiyaga qarshi o'z pozitsiyasini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar kabi zamonaviy texnologiyalar yoshlar bilan birgalikda harakat qilish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri davlat xizmatchisi va fuqaro o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri munosabatni istisno qilishdir. Bu borada mamlakatimizda bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Korrupsiya illatiga qarshi kurashda har bir fuqaroning o'ziga xos mas'uliyati mavjud. Binobarin, korrupsiyaga barham berish nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning manfaati va vazifasidir. Bu muammo har bir fuqaroni tashvishga solishi, ushbu illatga qarshi kurashda hech kim chetda turmasligi kerak. Jamiyat va davlat taraqqiyoti, tinchlik va xavfsizlik yo'lida korrupsiyaga qarshi kurashda birlashish davr taqozosidir. "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni" sifatida 2004-yildan beri har yili nishonlanib kelinadi. 2003-yilning shu kuni Meksikaning Merida shahrida yuqori darajadagi siyosiy konferensiyada BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya davlatlar tomonidan imzolash uchun ochiq, deb e'lon qilingan. Ushbu kuni nishonlashdan maqsad korrupsiya muammosini tubdan tushunish va Konvensiyaning korrupsiya bilan kurashish hamda uning oldini olish borasidagi ahamiyatini anglab yetishdan iboratdir.

FVV va uning tarkibiy tuzilmalari shaxsiy tarkibi o'rtasida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonunbuzilish holatlarining oldini olish, ayniqsa, korrupsiyaga yo'l qo'yimaslik ham muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi, adolati jamiyat barpo etishda ularning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim, faollik va texnologiyalardan foydalanish korrupsiyani yengish uchun kuchli arsenal beradi. Yoshlar birgalikda harakat qilsa, o'zgarishlar agentiga aylanib, adolat, halollik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan jamiyatni barpo etishlari mumkin.

**Anvar QOBILOV tayyorladi.**



"Korrupsiya" so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, pora evaziga sotib olish, buzilish, sotilish ma'nolarini bildiradi. Yanayam soddaroq aytganda, bu termin mansabdor shaxsning qonun va axloq me'yorlariga zid ravishda o'z shaxsiy manfaati uchun mansab vakolatlari va huquqlarini suiiste'mol qilishini anglatadi. Korrupsiyaning xarakterli jihati, amaldor hamda uning manfaatlarini bilan jamiyat manfaatlarining bir-biriga zidligi hisoblanadi. Mazkur illatning aksariyat ko'rinishi amaldorlarning tovlamachiligi bo'lib, bunga, davlatga qarshi jinoyat sifatida qaraladi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunni qabul qilingan. Qonundan ko'zlangan maqsad, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunga ko'ra, davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa ishchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yetkazilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Mazkur majburiyatlarning bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazoga tortilishi ham belgilangan.

Yuqoridagilardan tashqari qonunda korrupsion jinoyat to'g'risida oshkor qilgan shaxs davlat himoyasi ostiga olinishi, biroq, ushbu qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etgan shaxslarga nisbatan qo'llanmasligi ham qayd etilgan.

aksini topgan. Ushbu rezolyutsiya qoidalariga muvofiq, davlat ichki qonunchiligi korrupsiya mezonlarini va uni bartaraf etish choralarini belgilaydi. Ushbu illatning ildizlari bir necha ming yillarga borib taqalishi odamni chuqur mulohazaga toldiradi. Dastlab insonlar biror-bir mavqega ega bo'lish uchun qabila boshlig'i yoki oqsoqolga sovg'a-salomlar hadya qilganlar. Qimmatliroq sovg'a bu odamni boshqalardan ajratib turgan va uning iltimosi yoki talabi so'zsiz qondirilgan. Qadim zamonlardayoq korrupsiyaga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natijani bermagan. Nari borsa, eng xavfli jinoyatlarning oldi olingan, xolos. Biroq kamomadga yo'l qo'yishlar va pora olishlar muntazam ravishda davom etavergan. Mazkur muammo bilan deyarli barcha qadimgi davlatlar va tuzumlar, hatto qadimgi Misr fir'avnlari ham to'qnash kelganlar.

XVIII asr oxiridan boshlab g'arbda jamiyatning korrupsiyaga munosabatida keskin burilish yuz bergan. Davlat hokimiyati unga tobe odamlar farovonligi uchun xizmat qilishi kerak, fuqarolar amaldorlar qonunlarga rioya qilgan holda ishlashi uchun ularni boqadi, degan shior ostida liberal islohotlar o'tkazilgan. Xususan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish eng og'ir jinoyat deb topilgan. XX asming ikkinchi yarmiga kelib bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojiga ham salbiy ta'sir etishi ravshanlashgan. Korporatsiyalar tomonidan xorijdagi oliy mansabdorlarni sotib olish ommaviy tus olgan. 90-yillarda sobiq sotsialistik respublikalarda yuz bergan liberallashtirish



## RUCHKA - KATTA IXTIRO



XIX asrga kelib sharikli ruchkaning paydo bo'lishi fanda alohida hodisaga aylandi. Sharikli ruchka uchun birinchi patent bundan 135 yil oldin 1888-yil 30-oktabrda Jon J.Loudga berildi. Loudning ruchkasi rozetkadan ushlab turgan kichik aylanuvchi po'lat sharga ega edi. U qo'pol yuzalarni belgilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa-da, xat yozish uchun juda noqulayligi bois muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Loudning patenti o'z kuchini yo'qotdi.

XX asrning 30-yillarida vengriyalik gazeta muharriri Laslo Biro qalamlarni to'ldirish va bulg'angan sahifalarni tozalash uchun ko'p vaqt sarflaganidan hafsalasi pir bo'lib, gazeta chop etishda ishlatiladigan siyohlar tez qurib, qog'oz quruq va dog'siz qolib ketishini payqadi.

U xuddi shu turdagi siyoh yordamida qalam yaratishga qaror qildi. Biro yangi sharikli dizaynlar uchun yopishqoq siyoh formulalarini ishlab chiqish uchun kimyodan foydali bilimga ega bo'lgan tish shifokori –

akasi Dyorjidan yordam so'radi. Biro innovatsiyasi siyohning yopishqoqligini shar-rozetka mexanizmi bilan muvaffaqiyatli birlashtirdi. Bu esa siyohning rezervuar ichida quritilishining oldini olish va boshqariladigan oqimga imkon berdi. Biro 1938-yil 15-iyunda Britaniya patentiga ariza berdi.

1941-yilda aka-uka Biro va do'sti Xuan Xorxe Meyne Germaniyadan qochib, Argentinaga ko'chib o'tishdi hamda u yerda "Argentinaning Biro qalamlari"ni tashkil qilishdi va 1943-yilda yangi patent oldi. Ularning qalami Argentinada "Birome", "Biro va Meyne" nomlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu mamlakatda sharikli qalamlar hali-hamon mavjud. Biro patenti va sharikli qalamlarga oid boshqa dastlabki patentlarda ko'pincha "shartli qalam" atamasi ishlatilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab

kompaniyalar o'zlarining sharikli qalam dizaynlarini tijoriy maqsadlarda ishlab chiqarish uchun kurashdilar. Xuddi shu davrda amerikalik tadbirkor Milton Reynolds Argentinaning Buenos-Ayres shahriga xizmat safari chog'ida Birome sharikli ruchkaga duch keldi va tijoriy salohiyatni tan olib, u bir nechta sharikli ruchka namunalarni sotib oldi. AQShga qaytib kelgach, "Reynolds International Pen" kompaniyasiga asos soldi.

1945-yil 29-oktabrda Nyu-York shahridagi Gimbels universal do'konida "Reynolds Rocket" kompaniyasi debuti har biri 12,50 AQSh dollariga narxlangan. Reynolds qalamni sotishda katta muvaffaqiyatga erishgan. Gimbels do'koni bir hafta ichida minglab sharikli ruchkalar sotgan. 1946-yilda sharikli ruchka sotuvi eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'lsa-da, keyinchalik bozorning to'yinganligi sababli iste'molchilarning qiziqishi pasaydi. Shu sababli 1950-yilning boshlarida Reynolds kompaniyasi zavolga yuz tutgan.

Bundan unumli fodalangan Marsel Bich 1950-yilda Amerika bozoriga Biro tomonidan litsenziyalangan va Argentina dizayniga asoslangan sharikli qalamni taqdim etgan. Bich 1953-yilda o'z nomini "Bic" deb qisqartirdi va hozir butun dunyoda tan olingan "Bic" sharikli brendiga asos solgan.

## "METR" O'LCHOVI QACHON TASDIQLANGAN?

Dunyoning deyarli barcha davlatlarida yagona o'lchov tizimi – metrdan foydalaniladi. Lekin bu yagona tizim qabul qilinishidan avval savdogarlarni va oddiy odamlarni ham yuqoridagi kabi birliklardagi chalkashliklar ko'p adashtirar edi. Jahonning turli mamlakatlarida mutlaqo o'ziga xos, nostandart birliklar qo'llanilardi va bu odatda o'sha joyning mahalliy sharoitidan, an'alaridan kelib chiqardi.

Hatto mamlakatlarning ichki hududlarida, aytaylik, viloyat va shaharlarida ham boshqa-boshqa birliklar qo'llanishi oddiy hol bo'lib, masalan, XVIII asrda Fransiyaning turli shahar va hududlarida faqat og'irlik o'lchov birligining o'zi uchun 100 xildan ziyod birliklar mavjud bo'lgan. Bu muhandislik hisob-kitoblarida va dengizchilikda ham katta muammolar tug'dirar edi. Chunki bir shahar uchun loyihalangan ko'rkam uylarni boshqa shaharda qurmoqchi bo'lishsa, xunuk va xatarli binolar yuzaga kelardi, navigatsiya jadvallari esa kemalarni riflarga boshlab borib urar edi.

Ayniqsa, Lyudovik XVI hukmronligining oxirgi yillarida, farang inqilobi boshlanishi arafasida Fransiyaning soliq amaldorlari dehqonlarni aynan shu o'lchov birliklari orqali chuv tushirib, katta soliqlarni undirishgan. Qallobliklar tobora ortavergan, dehqonlarga yer maydoni uchun soliq solishda otning kallasidek qiymatlar chiqqan o'lchovlar, dala maydoniga nisbatan olingan hosil hisobini yuritishda, ya'ni dehqonni o'zining haqini hisoblashga kelganda mutlaqo boshqacha raqamlarni berib turavergan. Natijada, alamzada dehqonlar bunday qalloblikdan qattiq norozi bo'la boshlagan.

Mamlakatda shundoq ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat taranglashib kelayotgan bir paytda yana boshqa ko'plab omillar o'laroq, ushbu chigallik ham xalqning g'azabini keltirar edi. Shu sababli 1780–1790-yillarda avj olgan va tarix kitoblarida "Buyuk Farang inqilobi" deb tilga olinadigan jarayonda oddiy xalq vakillarining hukumat oldiga qo'ygan talablaridan biri, aynan o'lchovlarni yagona tizimga keltirish va tartibga solish bo'lgan edi.

Inqilob amalga oshib, Milliy ta'sis majlisi faoliyat boshlagach, uning yig'inlaridan birida Charl Moris Taleyan ismli yepiskop nutq so'zlagan. Taleyan o'z nutqida xalqning talablarini sanab o'tish asnosida o'lchov tizimini ham tartibga solish kerakligini aytib o'tgan. U aniq fanlar sohasi olimlarida anchadan beri mavjud bo'lgan taklif – metrni Yer meridiani uzunligiga bog'lash fikrini o'rtaga tashlagan.

Farang inqilobi juda ko'p narsalarni radikal o'zgartirishga bo'lgan urinishlar bilan yodda qolgan. Xususan, inqilobchilar hatto oy nomlarini ham o'zgartirish bilan cheklanmasdan, soatni ham 24 soatlik qilmay, balki 100 soat, 100 daqiqa va 100 soniyaga tenglashtirmoqchi bo'lishgan. Qanchalik absurd bo'lmasin, o'nlik sanoq sistemasiga o'tish harakatlari yuzasidan vaqt hisobini ham shu tizimga solish fikri o'sha payt jiddiy ko'rib chiqilgan. Shu mulohazalarga ko'ra, metr Parij meridiani uzunligining 1/40000000 qismiga teng deb qabul qilingan.

Bir metr aniq keltirib chiqarilgach, uning asosida litrni ham olish mumkin edi. G'oyaga ko'ra, 10 kub sm. roppa rosa 1 litr deb qabul qilinishi va 1 litr suvning vazni esa 1 kg. deb olinishi ko'zda tutilgan edi. Ta'sis kengashining maxsus qarori



bilan Parij meridiani uzunligini aniqlash va uning asosida metrmng aniq uzunligini keltirib chiqarib, etalon tayyorlash uchun maxsus ilmiy guruh tuzilgan.

Uning tarkibiga o'sha paytning eng yirik olimlari bo'lgan Jan Batist D'Alamber va Pyer Mishen ham jalb qilinib, ular boshchiligida eng malakali geodeziya mutaxassislaridan iborat guruh Dyunker va Barselona shaharlaridan o'tadigan meridianing to'qqiz daraja va 40 daqiqaga teng yoyining uzunligini triangulyatsiya usuli bilan o'lchab chiqqan. Bu ishni uddalash uchun umumiy hisobda yetti yil vaqt ketgan.

Shu sababli 1792-yilning 25-iyulida boshlangan o'lchov ishlarining yakunini kutmasdan, Fransiyaning o'sha paytdagi muvaqqat hukumati 1793-yilning 1-avgust sanasidan e'tiboran mamlakatda yagona metr o'lchov tizimini joriy qilish haqida qaror qabul qilgan. Fransuzlarning o'sha metri hozirgidan biroz farqli va muayyan kichik xatolikka ega bo'lsa hamki, birliklarni yagona tizimga solish borasidagi ilk rasmiy urinish sifatida tarixga kirgan hamda metr o'lchov birligi rasman joriy qilingan ilk namuna o'laroq qayd etilgan.

Sahifani Anvar QOBILOV tayyorladi.



# Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

**Bosh muharrir**  
Azamat SUYUNOV

*Gazeta tahririyat  
kompyuterxonasida  
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

**Navbatchi:**  
A.QOBILOV

**Sahifalovchi:**  
B.SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun - 382

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1152  
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.  
Adadi - 9400 nusxa